Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · “Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnologik tarmoqlardagi o‘rni” mavzus...

materiallar to‘plami

TEXNIKA TA’LIM YO‘NALISH TALABALARGA LABORATORYA MASHG`ULOTLARINI OLIB BORISHNING ZAMONAVIY USULLARI (MASHINA MEXANIZMLAR NAZARYASI FANI MISOLIDA)

Jalilova Gulnoza Xabibullo qizi, Assistent, Farg‘ona politexnika instituti
Xamidjonov Axliddin Komiljon o`g`li, Student, Farg‘ona politexnika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari texnika yo‘nalishi talabalarini “Mashina mexanizmlar nazaryasi” fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishda faol uslublarni to‘g‘ri tanlash va muammolarni etarli darajada tushuntirish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Interfaol, texnologiya, trening, respondent, noan’anaviy, induvidual, optima

Kirish

“Mashina mexanizmlar nazaryasi” fanidan laboratoriya ishlarini bajarish o‘quvchi ma’ruza va amaliy mashg`ulot darslarida o‘tilgan mavzular hamda faoliyati jarayonida uning oldiga qo‘yilgan nazorat va amaliy topshiriqlarni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. “Mashina mexanizmlar nazaryasi” fanida laboratoriya ishi bajarishda faol uslublarni to‘g‘ri tanlash muammosini etarli darajada tushunmaslik hollari uchraydi. U yoki bu uslub optimalligi uning atalishi odatdagicha bo‘lib qolinganligi bilan emas, balki bajariladigan laboratoriya ishi mazmuniga mosligi, o‘quvchi imkoniyatiga muvofiqligi bilan baholanadi. Eng maqbul tanlangan uslublar qo‘yilgan muammoni belgilangan vaqtda ijobiy hal qilish imkonini beradi.

O‘qituvchi “Mashina mexanizmlar nazaryasi” fanida laboratoriya ishini bajarishni rejalashtirishda va noan’anaviy uslublarni tanlashda quyidagilarni amalga oshirishi zarur:

- Laboratoriya ishini bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar bilan tanishib chiqib, uni bajarish maqsadi va vazifalarini belgilab olish;
- Laboratoriya ishini bajarish bo‘yicha asosiy talablar: laboratoriya ishini bajarishda o‘quvchi qaysi asosiy tushunchalarni, hodisalarni, jarayonlarni, qonunlarni, nazariyalarni bilishi, nimalarni hal qila olishi kerakligi bilan tanishib chiqib, laboratoriya ishini bajarishdan kutiladigan natijalarni oldindan aniqlab olish;
- O`quv rejasi bilan tanishib, zarur bo‘lsa, unga o‘zgartirish kiritishi, bajariladigan laboratoriya ishlarini tasniflab chiqish;
- Har bir laboratoriya ishini bajarish uchun etarlicha vaqt ajratib, dasturda nazarda tutilgan fanlararo aloqadorlikdan foydalanish, mazkur tajriba ishi mazmuni va vazifalarini rejalashtirish;
- laboratoriya ishini bajarishda zamonaviy texnologiyalar va uslublarni tanlash;
- O`quvchining umumiy, kichik guruhda va induvidual holda laboratoriya ishini bajarishini uyushtirish shakllarining o‘zaro mos birlashmasini tanlash;
- Dars jarayonida tanlangan variantni qo‘llab, laboratoriya ishini bajarish uslubi va shakllariga zarur tuzatishlar kiritib borish.

Muhokama va natijalar Jamiyat rivojidagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishni texnologiyalashririshga olib keladi. Hozirgi davrda texnologiyalashrirish

Published: 10.11.2023

Cite this article: Jalilova Gulnoza Xabibullo qizi, Xamidjonov Axliddin Komiljon o`g`li (2023). Texnika ta’lim yo‘nalish talabalarga laboratorya mashg`ulotlarini olib borishning zamonaviy usullari (mashina mexanizmlar nazaryasi fani misolida). Emro Science and Education, 1(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/435

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

jarayoni hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Texnologiyalashtirish ob'ektiv jarayon bo'lib, ishlab chiqarishning barcha sohalariga kirib boradi, ular evolyutsiyasining yangi vazifalarini sifatli hal etilishiga asos soladi. Pedagogik texnologiya ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashtirishning tizimli usulidir. (YUNESKO) Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari texnika ta’lim yo‘nalish talabalarini “Mashina mexanizmlar nazaryasi” fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishda faol uslublarni to‘g‘ri tanlash va muammolarni etarli darajada tushuntirish maqsadga muvofiq.

Darsda laboratoriya ishini bajarish jarayonining 3 ta funksiyasi bajariladi: ta’lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish. Buni laboratoriya ishini bajarish davomida amalga oshirishda interfaol uslublardan foydalanib dars o‘tish yaqindan yordam beradi. Bajarilayotgan laboratoriya ishini bajarishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quvchiga o‘zaro ta’sir harakati orqali yo‘naltirish, interfaol uslublarni qo‘llash, laboratoriya ishini bajarishning asosi bo‘lib, bunda o‘quvchi tayyor bilimlarni bermasdan, balki ularni mustaqil izlanishga undaydi. Laboratoriya ishini bajarishda interfaol uslublarni qo‘llashda “Sinektika” hamda “Rotatsiya” usullardan foydalanish samaraliroq bo`la oladi

- “Sinektika” metodi. Bu metod amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun qulay bo'lib, "aqliy hujum" metodiga yaqin. Bunda talaba darsda qo'yilgan muammoni hal qilish yuzasidan analogiyaga asoslangan holda o'z fikrlarini, qarashlarini olg'a suradi. Bunda analogiya bevosita, shaxsiy, ramziy va xayoliy bo'lishi mumkin.
- “Rotatsiya” metodi. Bu metod laboratoriya mashg'ulotlari uchun qulay bo'lib mashg'ulot mavzuini har bir kichik guruh alohida-alohida muhokama qilib chiqishi, yozganlarini butun jamoa bo'lib tahlil qilib ko'rishi uchun qo'llaniladi va quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi;

dars mavzusi bo'yicha topshiriqlar (masalan, rejadagi mavzular) plakatlarga yozilib doskaga osib qo'yiladi;

topshiriqlar soni uchta bo'lsa, talaba-o'quvchilar ham shuncha kichik guruhlarga ajratiladi va guruhchalar nomerlanadi;

kichik guruhlar o'zlarining nomerlariga mos nomerdagi topshiriqni va uni bajarishda foydalaniladigan yozma ma'lumotlar paketini oladi;

kichik guruhlar o'zlariga taqdim etilgan materiallarni hamkorlikda o'rganishib topshiriqqa javoblarini yozishadi;

javoblar kichik guruhdagi husnixati chiroyli bir talaba-o'quvchi tomonidan yoziladi;

topshiriqlarga yozilgan javoblar varag'i, ma'lumotlar paketi kichik guruhlararo almashtiriladi va qo'shimcha qilinadi, biroq javoblarning takrorlanishiga yo'l qo'yilmaygan;

javoblar qaysi kichik guruhniki ekanligi ajralib turishi uchun ularga har xil rangdagi flamasterlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bo‘lajak Texnik ta`lim yo`nalish talabalarni Mashina mexanizmlar naaryasi fanini laboratoriya mashg‘ulotlarni bajarishda zamonaviy axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalardan keng foydalanib o‘qitish muhitini yaratadi. Yuqorida keltirib o‘tilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llanilishi talabalarni o‘quv materiallarni mustaqil o‘rganishiga, talabalarda laboratoriya mashg‘ulotlarni amaliy va nazariy ko‘nikmalarni shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. **Abduqodirov N. S. O. G. L., Oqyo‘Lov K. R. O. G., Jalilova G. X. Q. PAXTA** XOMASHYOSINI QURITISH VA TOZALASH //Scientific progress. – 2021. – Т. – №. 1. – С. 857-861.
2. Тўраев С.Ж. Касбий педагогика. Услубий қўлланма. –Қарши: 2020. -121б.
3. Тўраев С.Ж. Таълимда ахборот технологиялари. Услубий қўлланма.- Қарши: 2020.-102 б.
4. A.Axtambayev Abduqodirov N. S. O. G. L., Oqyo‘Lov K. R. O. G., Jalilova G. X Экономика И Сотциум 10, 506-512
5. Yunus Mirzakhonov, Sobitjon Akhtambaev, Nurzod Abdukodirov, Gulnoza Jalilova RESEARCH OF PARAMETERS AT THE APPEARANCE OF SHEARING FORCES IN THE COMPOUND TENSION ROLLER OF TRANSPORTATION AND TECHNOLOGICAL MACHINES DOI - 10.32743/UniTech.2021.92.11.12565 № 11 (92) ноябрь, 2021 г.
6. У. Сотволдиев А. Абдубаннопов Г. Жалилова ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СИСТЕМЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ АКСЕЛЕРАЦИОННОГО СКОЛЬЖЕНИЯ SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1601

Velosiped va Jamoat transportini birlashtirish (Shimoliy amerika misolida)

Andmi magistri Anvarov Sardorjon Rustamjon o'g'li
Ilmiy rahbar Baynazarov. X

Annatatsiya

Ushbu maqola O‘zbekistonning yirik shaharlarida velosiped-tranzit integratsiyasi haqida umumiy ma'lumot beradi. U avtobuslarda velosiped tokchalari bilan ta'minlash, temir yo'l transport vositalarida velosipedlarni joylashtirish, temir yo'l vokzallari va avtobus bekatlarida velosipedlarni to'xtash joyi kabi velosipedda sayr qilish dasturlaridagi milliy tendentsiyalarni tahlil qilish bilan boshlanadi. Biroq, maqolaning aksariyati. So'nggi o'n yil ichida jamoat transporti bilan velosipedda harakatlanishni muvofiqlashtirish bo'yicha katta yutuqlarga erishildi, ammo velosipedda sayohat qilish va haydashga bo'lgan talab ba'zi shaharlardagi ob'ektlar taklifidan ancha yuqori. Xavfsizlikni ta'minlash uchun, xususan, ko'proq mablag' kerak.

Kirish

Velosipedni jamoat transporti bilan muvofiqlashtirish o‘zaro manfaatli bo‘lib, ikkala rejimning afzalliklarini oshiradi va ko‘proq velosiped haydash hamda jamoat transportidan ko‘proq foydalanishni rag‘batlantiradi. Velosiped jamoat transportini qo'llab-quvvatlaydi, bu tranzit to'xtash joylarini piyoda masofasidan uzoqroqqa cho'zish va mahalladagi oziqlantiruvchi avtobuslar va avtomobillar uchun to'xtash va haydash vositalariga qaraganda ancha arzon narxlarda. Jamoat transportiga kirish velosipedchilarga velosipedda iloji boricha uzoqroq sayohat qilishlariga yordam beradi. Velosipedchilar yomon ob-havo, qiyin topografiya, velosiped yo'llari tarmog'idagi bo'shliqlar va mexanik nosozliklarga duch kelganda tranzit xizmatlari ham qulay alternativlarni taqdim etishi mumkin.

O'tmishda yurtimizda velosipedda yurish va haydash ko'pchilik shaharlarda velosiped va jamoat transportidan foydalanishning past darajasi bilan cheklangan edi, bu shimoliy Evropadagi vaziyatning teskarisi . Biroq, so'nggi yillarda yurtimizda velosiped haydash darajasi va jamoat transportidan foydalanish keskin o'sdi va velosipedda sayohatlar ham ko'paydi. Darhaqiqat, ba'zi shaharlarda u shu qadar muvaffaqiyatli bo'ldiki, velosiped va haydash vositalariga bo'lgan talab mavjud taklifdan oshib ketadi .

Ushbu maqolada O‘zbekistonning velosipedni jamoat transporti bilan birlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan dasturlar va siyosatlar tasvirlangan. U integratsiyaning har xil turlari va ularni amalga oshirish ko'lami haqida qisqacha ma'lumot berishdan boshlanadi. Biroq, maqolaning ko'p qismi O‘zbekistoning ning ikkita yirik shahrida Toshkent va vodiy velosiped-tranzit integratsiyasining amaliy tadqiqotlariga bag'ishlangan. Keys tadqiqoti tahlili har bir shaharning integratsiya siyosatining kuchli va zaif tomonlarini qayd etib, turli shaharlarda amalga oshirilgan integratsiya choralarining turi va hajmini taqqoslaydi. Hujjat sakkizta shahardagi eng